GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.38.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

ABDULLAYEVA DILBAR OLIMJON QIZI

SAMARQAND VILOYATIDA ZOOFIL PASHSHALARINING BIOXILMA-XILLIGI VA ULARGA INSEKTITSIDLARNING TA'SIRI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Guliston – 2026

UO‘K: 595.792:575.1

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological sciences

Abdullayeva Dilbar Olimjon qizi
Samarqand viloyatida zoofil pashshalarining bioxilma-xilligi va ularga insektitsidlarning ta’siri 3

Абдуллаева Дилбар Олимжон кизи
Биоразнообразие зоофильных мух Самаркандской области и влияние инсектицидов на них 21

Abdullayeva Dilbar Olimjon qizi
Biodiversity of zoophilous flies in the Samarkand region and the effects of insecticides on them 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.38.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

ABDULLAYEVA DILBAR OLIMJON QIZI

SAMARQAND VILOYATIDA ZOOFIL PASHSHALARINING BIOXILMA-XILLIGI VA ULARGA INSEKTITSIDLARNING TA'SIRI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Guliston – 2026

Biologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/B1800 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kudratov Jasur Asilbekovich** biologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Halimov Fazlitdin Zakirovich** biologiya fanlari doktori, dotsent
	Medetov Maxsetbay Japakovich biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.38.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil« 14 » noyabr kuni soat 11^{00} dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25, E-mail: glsuinfo@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№3 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil«30» oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil «30» oktabr № 7 raqamli sonli reyestr bayonnomasi)

A. Pazilov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

F.P. Gaibnazarova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

E.B. Shakarboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global iqlim o‘zgarishlari, antropogen bosimning ortishi hamda agroekotizimlarning intensiv transformatsiyasi natijasida hasharotlar populyatsiyasining tarkibi va dinamikasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, zoofil ikkiqanotlilar (Diptera) hayvonlar bilan trofik va ekologik jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning biologiyasi va populyatsion dinamikasi atrof-muhit omillari ta’siriga sezgir hisoblanadi. Natijada zoofil pashshalarning areali kengayib borishi, yangi hududlarni egallashi va populyatsiya zichligining ortishi kuzatilmoqda, bu esa ularning ekologik va xo‘jalik ahamiyatini yanada oshirmoqda[1].

Jahon miqyosida zoofil pashshalar veterinariya va tibbiyot entomologiyasining muhim obyekti sifatida keng o‘rganilmoqda, chunki ular ko‘plab infeksion va invazion kasalliklarning tashuvchisi hisoblanadi. Xususan, Muscidae, Tabanidae, Calliphoridae va Sarcophagidae oilalariga mansub turlar chorva hayvonlariga bevosita zarar yetkazib, ularning mahsuldorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Ushbu zararli ta’sirni kamaytirishda insektisid preparatlar asosiy kurash vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Biroq insektisidlarning uzoq muddatli va nazoratsiz qo‘llanilishi natijasida rezistentlik shakllanishi, hamda atrof-muhitga salbiy ekologik yuklama ortishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Shu bois zoofil pashshalarning insektisidlarga sezuvchanligi, ularning javob reaksiyalari hamda ekologik oqibatlarini kompleks o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekistonda zoofil ikkiqanotlilar chorvachilik xo‘jaliklarida keng tarqalgan bo‘lib, ular hayvonlarning mahsuldorligini pasaytirish va turli kasalliklarning tarqalishida ishtirok etishi bilan katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Shu bilan birga, zoofil pashshalar faunasi, ularning ekologik xususiyatlari, biotoplar bo‘yicha tarqalishi hamda insektisidlarga rezistentligi yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Ayniqsa, zamonaviy insektisid preparatlarning samaradorligini baholash va optimal qo‘llash strategiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot zoofil ikkiqanotlilarni chuqur o‘rganish va ularga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. «O‘zbekiston Respublikasida organik qishloq xo‘jaligi va organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish konsepsiyasi»da «Organik chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» vazifasi belgilab berilgan[2]. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda, bu mavzu o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-iyundagi 370-sonli qarori “Bioxilma-xillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil qilish” to‘g‘risidagi, 2019 yil 11 iyundagi

[1] Hall M.J., Wall R.L., Stevens J.R. Traumatic Myiasis: A Neglected Disease in a Changing World. Annual Review Entomol. 2016;61:159-76. doi: 10.1146/annurev-ento-010715-023655

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-son «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Farmoni.

484-son qarori “2019-2028 yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[3]gi sog‘lig‘ini muhofaza qilish, epizootik barqarorlikni ta’minlash hamda parazitar kasalliklarning oldini olish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu jihatdan, zoofil ikkiqanotlilarni (Diptera) o‘rganish, ularning chorva hayvonlariga ta’sirini baholash hamda ularga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan mazkur dissertatsiya tadqiqoti yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Chorvachilik fermer xo‘jaliklari va aholi xonadonlarida uchraydigan zoofil pashshalarning tur tarkibi, morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, tarqalishi, kariosistematikasi va ularga qarshi kurash tadbirlari bo‘yicha xorijiy olimlardan: A.Heath (2002), M.J.Lehane (2005), D.L.Foil, D.C.Younger (2006), A.Hanan (2010), C.H.Marchiori (2014), T.C.Sparks, R.Nauen (2014), N.C.Hinkle, J.A.Hogsette (2021), E.Abbasi, S.Daliri (2025) ishlarida o‘z ifodasini topgan.

MDH olimlaridan: T.Yu.Ageyeva (2008), S.P.Gaponov, M.A.Sotnikova (2008), F.K.Ragimxanova, A.M.Atayev (2009), R.M.Akbayev (2017), A.M.Shevchenko, R.O.Slobodian (2017), L.A.Glazunova (2018), S.S.Gadjiyeva (2018), A.Issimov (2021), V.N.Domatskiy, E.I. Sivkova (2021) va boshqalar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda hududlarida qishloq xo‘jalik hayvonlarining zoofil pashshalari, ektoparazitlari ularning faunasi, ekologiyasi, biologiyasi bo‘yicha E.I.Gan (1979), A.R. Ro‘zimurodov, N.A. Azizov (1987), M.D.Xolbayev (1991), S.I. Mavlonov (2021), F.S. Po‘latov(2020), A.Sh.Ismoilov (2024) kabi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va yuqori natijalarga erishilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda zooparazitlar, jumladan, zoofil hasharotlar faunasi, ularning mavsumiy dinamikasi, tarqalishi va ularga qarshi kurashish choralari bo‘yicha kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu sababli zoofil hasharotlarning bioxilma-xilligini, faunasini o‘rganish va ularga qarshi zamonaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining QXA-9-028 “Qishloq xo‘jalik hayvonlarini xavfli parazitoz va tabiiy o‘choqli transmissiv kasalliklardan muhofaza qilishning yangi ekologik bezarar, tejamkor va samarali vositalarini tadqiq va joriy qilish” (2015-2017 yy.) va BV-A-QX-2018-2020 “Qishloq xo‘jalik hayvonlarini parazitar kasalliklariga qarshi kurashishning yangi vosita va usullarini

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi 484-son "2019-2028 yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori.

tadqiq va joriy qilish” (2018-2020 yy). ilmiy tadqiqot ishlari loyihalari asosida bajarilgan va mamlakatimizda ushbu soha bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga monand ravishda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyati zoofil pashshalarining bioxilma-xilligi va bioekologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularga insektitsidlarning ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quydagilardan iborat:

Samarqand viloyatida zoofil pashshalarning taksonomik tarkibini aniqlash;

zoofil pashshalar faunasining turlar xilma-xilligi, dominantlik darajasi va ekologik strukturasini (Shannon, Simpson va boshqa indekslar asosida) baholash;

zoofil pashshalarning biotoplar bo‘yicha taqsimlanishini (chorvachilik hududlari, yaylovlar, tog‘ zonalari va antropogen biotoplar kesimida) tahlil qilish;

zoofil pashshalarni ekologik guruhlarga ajratish hamda ularning ekologik rolini aniqlash;

zoofil pashshalarning mavsumiy dinamikasi va fenologik xususiyatlarini aniqlash;

zoofil pashshalar faunasining zoogeografik strukturasini aniqlash;

zoofil pashshalarga qarshi qo‘llaniladigan insektitsid preparatlarning laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitidagi samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyatlari shaxsiy, yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari yaylovlaridagi chorva mollari, zoofil pashshalar, ularning tuxumlari, lichinka va imagolari, insektisid preparatlar olingan.

Tadqiqotning predmeti: tajriba o‘tkazilgan xo‘jaliklardagi chorva mollari bilan ekologik aloqada bo‘lgan zoofil pashshalarning faunasi, mavsumiy dinamikasi, bioxilmaxilligi, sistematikasi, hamda Sipermetrin, Sumi-alfa kabi piretroid preparatlarning ularga ta’siri.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda umumiy qabul qilingan klassik entomologik, dipterologik, parazitologik, biologik va fenologik usullardan foydalanildi. Namunalar yig‘ish entomologik to‘r (sachok), go‘ngli tuzoqlar usullari asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– Ilk bor Samarqand viloyatida zoofil pashshalarning zamonaviy taksonomik tarkibi aniqlanib, 14 oila, 42 avlod va 90 turdan iborat fauna shakllangani asoslangan, ilk bor O’zbekiston faunasi uchun yangi tur - *Sepsis flavimana* qayd etilgan (1-ilova);

– ilk bor *Eristalinus aeneus, Eristalinus sepulchralis, Syritta pipiens* va *Fannia incisurata* turlarining zoofil xususiyatga ega ekani aniqlanib, ularning chorva hayvonlari chiqindilari bilan bog‘liq substratlarda doimiy uchrashi hamda chorvachilik biotoplarining muhim komponenti ekanligi asoslangan;

– zoofil pashshalar faunasining ekologik strukturasi bioxilma-xillik indekslari orqali kompleks baholanib, Simpson dominantlik indeksi, va Berger–Parker indeksi faunada bir tur mutlaq ustunlik qilmasligi, Simpson xilma-xillik indeksi, Pielou tekislik indeksi va Sheldonning tekislik indeksi turlar orasida individlar taqsimoti yetarlicha muvozanatlangani orqali fauna barqarorligi asoslangan;

– zoofil pashshalarning biotopik taqsimlanish qonuniyatlari ochib berilib, chorvachilik fermalari ularning asosiy ekologik markazi ekanligi, bu biotoplardagi turlarining xilma-xilligi eng yuqori bo'lishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

– zoofil pashshalarning ekologik guruhlar tizimlashtirilgan hamda faunaning fenologik, xorologik va trofik strukturasi ochib berilgan;.

– Sipermetrin va sumi-alfa preparatlarining zoofil pashshalarga nisbatan yuqori (100 %) insektisid samaradorligi eksperimental ravishda asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

– Samarqand viloyatida zoofil pashshalar faunasi tarkibi aniqlanib, chorvachilik xo'jaliklari uchun epizootologik ahamiyatga ega turlar ro'yxati shakllantirildi; ularning biotoplar bo'yicha tarqalish xususiyatlari tahlil qilinib, chorvachilik hududlarida yuqori konsentratsiya zonalari belgilandi;

– zoofil pashshalarning mavsumiy faollik davrlari aniqlanib, ularga qarshi kurash choralarini optimal muddatlarda qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

– sipermetrin va sumi-alfa preparatlarining yuqori samaradorligi eksperimental ravishda asoslanib, ularni chorvachilik amaliyotida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi, natijada zoofil pashshalarga qarshi ekologik asoslangan kompleks kurash tizimi (sanitar-gigiyenik va kimyoviy usullar uyg'unligi) taklif etildi hamda olingan natijalarni veterinariya va entomologiya sohalarida o'quv jarayoni va amaliy qo'llanmalarda qo'llash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi entomologiya va veterinariya parazitologiya sohalarida qo'llanilgan klassik va zamonaviy usul hamda yondashuvlar asosida olingan ma'lumotlarning mavjud nazariy bilimlarga mos kelishi, faunistik ma'lumotlarning zamonaviy dasturlar yordamida statistik tahlildan o'tkazilgani, olingan natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilgani, turlarning to'g'ri aniqlanishi yetakchi mutaxassislar tomonidan tasdiqlangani, shuningdek, amaliy natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan e'tirof etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Samarqand viloyati zoofil pashshalari faunasining zamonaviy taksonomik tarkibi, bioxilma-xilligi, ekologik tuzilishi, biotopik taqsimlanishi va mavsumiy dinamikasi ilk bor kompleks tarzda o'rganilib, mintaqaviy dipterofauna bo'yicha ilmiy ma'lumotlar bazasi sezilarli darajada boyitildi hamda zoofil pashshalarning agroekotizimlardagi roli va zoogeografik xususiyatlari nazariy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa zoofil pashshalarning epizootologik xavfli davrlari va tarqalish hududlari aniqlanib, ularga qarshi kurashning optimal muddatlari va samarali usullari ishlab chiqilganligi, xususan Sipermetrin va sumi-alfa preparatlarining yuqori insektisid samaradorligi asoslanib, chorvachilik xo'jaliklarida qo'llash uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi; mazkur natijalar zoologiya, ekologiya va entomologiya veterinariya, sanitariya amaliyotida hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatida zoofil pashshalarining bioxilma-xilligi va ularga insektitsidlarning ta’siri yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

«Mahalliy sumi-alfa insektoakaritsidining chorvachilikda ekto- va endoparazitlarga hamda xavfli transmissiv kasalliklarning “vektor” tarqatuvchilariga qarshi kurashda qo‘llanilishi» (2015) tavsiyanoma va «Yirik va mayda shoxli hayvonlar, ot va tuyalar ektoparazitlariga qarshi kurashish to‘g‘risida» (2016) yo‘riqnoma ishlab chiqilib, Tayloq tumanidagi “Bekat”, “Akmal Toshpo‘latovich” chorvachilik fermer xo‘jaliklari, Nurobod tumanidagi “Nurli El Chorvadori” fermer xo‘jaligi, Oqdaryo tumanidagi “Sordorbek hosili” fermer xo’jaliklarida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025-yil 07-noyabrdagi 02/23-814-son ma’lumotnomasi). Natijada zoofil pashshalarga qarshi o‘tkazilgan dezinseksiya tadbirlari tufayli ularning keskin kamayishiga erishilgan;

Zoofil pashshalarga qarshi sumi-alfa ning 0,003 %, Cypermethrin preparatining 0,015 % konsentrat emulsiyalari yuqori insektisid samara ko‘rsatishi aniqlangan va Tayloq tumanidagi “Bekat”, “Akmal Toshpo‘latovich” chorvachilik fermer xo‘jaliklari, Nurobod tumanidagi “Nurli El Chorvadori” fermer xo‘jaligi, Oqdaryo tumanidagi “Sordorbek hosili” fermer xo’jaliklari amaliyotidga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025-yil 07-noyabrdagi 02/23-814-son ma’lumotnomasi). Natijada chorvachilik xo‘jaliklarda parazitlik qiladigan zoofil pashshalarga qarshi kurash va oldini olishning samaradorligini oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xorijiy, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda 6 ta ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 1 ta monografiya, shuningdek 1 ta tavsiyanoma va 1 ta yo‘riqnoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to’rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Zoofil ikkiqanotlilarning bioekologik xususiyatlari va o‘rganilish holati**” deb nomlangan birinchi bobi bir necha bo‘limlardan iborat. Birinchi bo‘limda zoofillik tushunchasining shakllanish tarixi, uning dastlab parazitizm bilan bog‘liq tor talqindan boshlab, keyinchalik hayvonlar bilan trofik, topik va forik aloqalarni qamrab oluvchi keng ekologik tushunchaga aylanishi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan .

Bobning ikkinchi bo‘limida zoofil ikkiqanotlilarning chorvachilik ekotizimlaridagi ekologik-biotsenotik aloqalari yoritilib, ularning hayvonlar bilan

oziqaviy, makoniy va tarqalish bog‘liqligi asoslab berilgan hamda koprofag, nekrofag, gematofag va boshqa trofik guruhlarning shakllanishi ko‘rsatib o‘tilgan .

Keyingi bo‘limlarda zoofil ikkiqanotlilarning ekologik guruhlari tizimlashtirilib, ularning chorvachilik ekotizimlaridagi funksional roli, organik moddalarning parchalanishi, sanitariya jarayonlari va kasalliklar tarqalishidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, zoofil turlarni aniqlashning ekologik va biotsenotik mezonlari asoslab berilib, gnus bilan qiyosiy tavsifi hamda asosiy biologik farqlari yoritilgan.


Bobning navbatdagi bo‘limida zoofil ikkiqanotlilarga qarshi qo‘llaniladigan insektisidlar, ularning ta’sir mexanizmlari, qo‘llash texnologiyalari va rezistentlik muammolari tahlil qilinib, integratsiyalashgan kurash yondashuvlarining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan . Bobning yakuniy bo‘limida Markaziy Osiyo va O‘zbekistonda zoofil ikkiqanotlilarni o‘rganilish tarixi bosqichma-bosqich tahlil qilinib, mavjud tadqiqotlar natijalari umumlashtirilgan. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, mintaqada zoofil ikkiqanotlilar faunasi, ularning bioxilma-xilligi, ekologik xususiyatlari va insektisidlarga sezgirligi yetarli darajada kompleks o‘rganilmaganligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot hududining tabiiy-geografik tavsifi, materiallari va uslublari**” deb nomlangan ikkinchi bobi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limida Samarqand viloyatining tabiiy-geografik sharoitlari tavsiflangan. Tadqiqotlar viloyatning turli chorvachilik hududlari va statsionar nuqtalarida, jumladan Qo‘shrabot, Payariq, Oqdaryo, Nurobod, Tayloq, Bulung‘ur va Urgut tumanlarida olib borilgan. Hududning relyefi, iqlimi, tuproq-iqlim sharoiti, chorvachilik va agroekotizimlarining rivojlanganligi zoofil pashshalar uchun qulay ekologik muhit shakllanishiga sabab bo‘lishi asoslab berilgan (1-rasm).

Bobning ikkinchi bo‘limida tadqiqot materiallari va uslublari bayon etilib, zoofil pashshalar faunasini o‘rganish uchun yil davomida chorvachilik xo‘jaliklari va yaylovlarda muntazam kuzatuvlar olib borilgani ko‘rsatilgan. Hasharotlarni yig‘ishda entomologik standart usullar — qo‘l to‘ri, go‘ngli tuzoqlar, yopishqoq va yorug‘lik tuzoqlari qo‘llanilgan, namunalar laboratoriyada morfologik va sistematik jihatdan aniqlangan.

Zoofil pashshalar faunasining bioxilma-xilligi va tuzilmasini baholashda Shannon, Simpson, Margalef, Menhinick, Berger–Parker va boshqa statistik indekslardan foydalanilgan. Shuningdek, insektisidlarning samaradorligini baholash maqsadida laboratoriya va dala sharoitida biotestlar o‘tkazilib, turli konsentratsiyalardagi piretroid preparatlarning kontakt va oziqa orqali ta’siri, o‘lim ko‘rsatkichlari hamda LD_{50} va LC_{50} qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotlarda Musca domestica model turi sifatida tanlanib, insektisidlarning biologik samaradorligi va subletal ta’sirlari kompleks baholangan. Olingan natijalar zoofil ikkiqanotlilar populyatsiyasiga qarshi samarali kurash strategiyalarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qilgan.




1-rasm. Tadqiqot olib borilgan nuqtalar: 1-Qo‘shrabot; 2-Payariq; 3-Oqdaryo; 4-Jarquduq; 5-Zirabuloq; 6-Qarnob; 7-Bekat; 8-Bulung‘ur; 9-Institut; 10-Akmal; 11-Urgut; 12-Sarido‘kon.

Dissertatsiyaning **“Samarqand viloyatida zoofil pashshalar faunasi”** nomli uchinchi bobi oltita bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limida Samarqand viloyatida zoofil pashshalarning taksonomik tarkibi yoritilib, aniqlangan turlar ro‘yxati va ularning sistematik o‘rni keltirilgan. 2015–2025-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Arthropoda tipi, Insecta sinfi va Diptera turkumiga mansub 14 ta oila, 42 ta avlod va 90 ta tur zoofil pashshalar aniqlangan bo‘lib, ulardan biri O‘zbekiston faunasi uchun yangi qayd etilgan tur – Sepsis flavimana Meigen, 1826 hisoblanadi.

Material: Samarqand viloyati, Urgut tumani Navro‘z mahallasi, shaxsiy xonadon; 09.10.2025; D.Abdullayeva; 3 ta erkak namunalar.

Tarqalishi: Tur Palearktika mintaqasida tarqalgan bo‘lib, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston va boshqa hududlardan ma'lum. O‘zbekiston hududidan ilgari qayd etilmagan.

Diagnostik belgilari: Erkak individning oldingi oyog‘i diagnostik ahamiyatga ega. Oldingi son (fore femur) ventral tomonida bitta qator tikanlar mavjud. Oldingi boldir (fore tibia) bazal qismida kuchsiz kutikulyar bo‘rtma kuzatiladi. Surstil qisqa va tumshuqsimon shaklda bo‘lib, tur uchun xarakterli hisoblanadi. Ushbu belgilar namunaning *Sepsis flavimana* Meigen, 1826 ekanligini tasdiqlaydi (2-rasm).



2-rasm. *Sepsis* avlodi diagnostik belgilari (Shtakelberg bo‘yicha). Pastgi qator o‘ngda *Sepsis flavimana* Meigen, 1826– Samarqand viloyatidan yig‘ilgan namunadagi oldingi oyoqning mikrofotosurati. Strelkalar tur uchun xarakterli diagnostik belgilarni ko‘rsatadi.

Fauna tur tarkibining oilalar bo’yicha taqsimlanishiga e’tibor bersak, yetakchi o’rinlarni Muscidae 55 tur ya’ni 60 %; Sarcophagidae 8 tur (8.89 %); Syrphidae - 5 tur (5,55 %); Sepsidae - 5 tur (5,55 %); Calliphoridae - 4 tur (4,44 %); Fanniidae - 4 tur (4,44 %); egallaydi. Qolgan oilalar esa - 10 turdan (11,1 %) iborat. Demak, Muscidae oilasi faunada mutlaq ustunlikka ega bo‘lib, zoofil va koprofag komplekslarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu holat O‘zbekistonning cho‘l, dasht, voha va tog‘oldi sharoitlarida go‘ng substratlari, yem-xashak omborlari, yaylovlar va chorvachilik fermalari ko‘pligi bilan bog‘liq (3-rasm).

Individlar serobligi jihatidan oilalar taqqoslanganda ham Muscidae oilasining ustunligi aniq ko’rinadi. Barcha yig‘ilgan pashshalarning 54,85% ini shu oila individlari tashkil qildi. Bu uning populyatsion dinamikasi, reproduktiv salohiyati va antropogen biotoplarda muvaffaqiyatli rivojlanish strategiyalarini aks ettiradi.

Sarcophagidae oilasi turlar soni bo‘yicha ikkinchi o‘rinda bo‘lishiga qaramay, individlar serobligida vaziyat teskari: uning ulushi atigi 2,65 % ni tashkil etdi. Bu Sarcophagidae vakillarining ko‘proq murda, go‘ng yoki qo‘shimcha saprofag substratlarga ixtisoslashganligi, populyatsiyalar zichligining yuqori bo‘lmasligi bilan izohlanadi. Aksincha, Fanniidae oilasi turlar soni bo‘yicha kichik bo‘lsa-da, individlar serobligi jihatidan sezilarli o‘rin egallaydi: 11,33 %. Bu guruhning uy xo‘jaliklari, chorvachilik obyektlari va go‘ng substratlariga kuchli moslashgan sinantrop vakillardan iborat ekanini ko‘rsatadi.


Calliphoridae vakillari ham populyatsion miqyosda muhim ulushga ega bo‘lib, yig‘ilgan barcha individlarning 15,34 % ini tashkil etdi. Bu turkumning biologiyasi — murda va yarim chirigan substratlarda rivojlanish — uni tabiiy va antropogen manbalarda barqaror uchrashini ta’minlaydi.

Syrphidae o‘z mavqeini saqlagan holda umumiy individlar sonining 4,27 % ini tashkil etadi. Sepsidae oilasi esa turlar xilma-xilligi bo‘yicha 5,55 % ulushga ega bo‘lsa-da, individlar serobligi bo‘yicha keskin pasayib, atigi 1,06 % ulushni ko‘rsatdi. Bu guruh odatda yuqori populyatsion zichlikka ega bo‘lmaydigan, tor ekologik ixtisoslashgan turlardan iborat.

Qizig‘i shundaki, turlari atigi 1 turdan iborat bo‘lgan Scathophagidae va Sphaeroceridae oilalari populyatsion ulush jihatidan mos ravishda 3,38 % va 2,15 % kabi ancha sezilarli ko‘rsatkich qayd etdi. Bu ikki oilaning qarashli turlari o‘z muhitida juda yaxshi moslashgan bo‘lib, ekologik dominant sifatida ishtirok etuvchi ixtisoslashgan guruhlar hisoblanadi. Qolgan 5 oila faunada individlar serobliligi bo‘yicha 1 % dan kam (0,56 %) ulushni tashkil etdi.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, Samarqand viloyati zoofil pashshalar faunasida Muscidae oilasi nafaqat tur xilma-xilligi, balki populyatsion ustunlik bo‘yicha ham mutlaq yetakchilik qiladi. Fanniidae va Calliphoridae oilalari esa ikkilamchi, ammo muhim populyatsion komponent sifatida ishtirok etadi (3-rasm).

Dissertatsiyaning uchinchi bobining ikkinchi bo‘limida zoofil pashshalarning ekologik-faunistik tahlili yoritilib, ularning turlar xilma-xilligi, populyatsion tuzilmasi va ekologik guruhlari kompleks baholangan. Faunaning oilalar bo‘yicha tahlili Muscidae oilasining mutlaq ustunligini ko‘rsatib, u turlar sonining 60 % ini va individlar mo‘lligining asosiy qismini tashkil etishi bilan ajralib turadi. Sarcophagidae, Calliphoridae va Fanniidae oilalari ikkilamchi, ammo ekologik jihatdan muhim guruhlar sifatida qayd etilgan. Bu holat chorvachilik biotoplarida organik substratlarning ko‘pligi va antropogen omillar ta’siri bilan izohlanadi.



3-rasm. Zoofil pashshalar faunasida turli oilalarning turlar xilma-xilligi (chapda) va individlar mo‘lligi (o‘ngda) bo‘yicha hissasi

Muscidae oilasi ichida Muscinae kenja oilasi yetakchi bo‘lib, turlar xilma-xilligi va individlar soni bo‘yicha ustunlik qilishi aniqlangan. Qolgan kenja oilalar (Phaoniinae, Mydaeinae, Coenosiinae) esa nisbatan kam sonli, ammo ekologik jihatdan barqaror guruhlar sifatida tavsiflangan.

Avlodlar kesimidagi tahlil natijalari ayrim avlodlari (*Musca*, *Fannia*, *Stomoxys*) yuqori populyatsion ustunlikka ega ekanligini, boshqalari esa faunaning


xilma-xilligini ta’minlovchi fon komponentlar sifatida ishtirok etishini ko‘rsatdi. Xususan, *Musca domestica* mutlaq dominant tur sifatida ajralib chiqib, chorvachilik va sinantrop muhitlarga yuqori moslashganligi bilan tavsiflandi.

Zoofil pashshalar faunasining avlodlar kesimidagi turlar xilma-xilligini tahlil qilganimizda, yetakchi o‘rinni *Musca* avlodi egallaydi. Ushbu avlod jami 9 turni o‘z ichiga oladi va umumiy turlar tarkibining 10,0 % ini tashkil qiladi. *Hydrotaea* avlodi mos ravishda 6 ta tur bilan keyingi o‘rinni egallab, faunaning 6,67 % qismini tashkil etdi. Turlar xilma-xilligi bo‘yicha *Muscina*, *Sepsis*, *Phaonia* va *Lispe* avlodlari 5 turdan iborat bo‘lib, ularning har biri zoofil pashshalar tarkibida sezilarli ulushga ega (5,56 %).

Shuningdek, *Fannia* va *Helina* avlodlarii 4 tadan tur (4,44 %), *Parasarcophaga* va *Pyrellia* avlodlari esa 3 tur bilan faunaning kichik, ammo ekologik jihatdan ahamiyatli qismini tashkil qiladi. Yana 9 avlod ushbu faunada 2 tadan turdan iborat. Qolgan avlodlar esa bir dona turdan iborat bo‘lib, ulardan har birining ulushi 1,1 % ni tashkil etadi. Bu natija zoofil pashshalar faunasining avlodlar bo‘yicha tarkibi keskin notekis bo‘lib, ayrim avlodlarda turlar konsentratsiyasi yuqori ekanini ko‘rsatadi (3-rasm).

Individlar serobligi bo‘yicha avlodlar hissasi tahlil qilinganda, turlar soni ko‘p bo‘lmagan ayrim avlodlar yuqori populyatsion ustunlikka ega ekani kuzatildi. Xususan, *Musca* avlodi turlar xilma-xilligidan qat’iy nazar, individlar mo‘lligi bo‘yicha mutlaq ustunlikka ega bo‘lib, umumiy yig‘imning 26,8 % ini tashkil qildi. *Fannia* avlodi turlar soni jihatidan ham eng xilma-xillaridan bo’lib, individlar serobligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda, faunaning 13,65 % qismini tashkil etadi. *Calliphora* avlodi esa turlar soni jihatidan yuqori bo‘lmasa-da, individlar serobligi bo‘yicha uchinchi o‘rinda bo‘lib, faunaning 9,24 % qismini tashkil etadi. Bu holat ko’p jihatdan bu avlod turi faqat bir nuqtada yoppasiga uchrashi natijasida kelib chiqib, adabiyotlardagi ma’lumotlar bilan mos kelmaydi.


Qon so‘ruvchi turlarni birlashtiruvchi *Stomoxys* avlodi ham, atigi 1 ta turga ega bo‘lishiga qaramay, individlar serobligi bo‘yicha 8,31 % bilan to‘rtinchi o‘rinni egallaydi. Bu holat ayrim avlodlar ekologik sharoitlarga kuchli moslashgan holda populyatsiyalarining keskin ko‘payish xususiyatiga egaligidan dalolat beradi (4-rasm).



4-rasm. Zoofil pashshalar faunasining avlodlar kesimidagi turlar xilma-xilligi (chapda) va individlar serobligi (o’ngda) bo'yicha hissasi.

Faunada keyingi o‘rinlarda kelgan avlodlarni subdominantlar deyish mumkin. Bulardan *Muscina* avlodi turlar xilma-xilligi jihatidan yuqori bo‘lib, individlar serobligi bo‘yicha ham salmoqli ulush — 5,56 % ni egalladi. *Lucilia, Haematobia, Scathophaga, Leptocera, Neomyia* va *Eristalis* kabi avlodlar yuqori ekologik moslashuvchanligi tufayli individlar soni bo‘yicha faunaga sezilarli hissa qo‘shadi (2–5 %). Keyingi guruhni retsedent avlodlar deyish mumkin, bularga *Hydrotaea, Phaonia, Pollenia, Drosophila* va *Sepsis* mansub bo’lib, bu avlodlar ulushi 1-2 % dan iborat. Qolgan 24 ta avlodlarning umumiy populyatsion ulushi 9 % ga teng bo‘lib, ular faunada fon guruhini tashkil qiladi (4-rasm).

Bioxilma-xillik indekslari natijalariga ko‘ra, Samarqand viloyatida zoofil pashshalar faunasi yuqori tur boyligi (90 tur, 3019 individ) va barqaror ekologik tuzilishga ega ekanligi aniqlangan. Simpson dominant indeksi past (D = 0,072), Simpson (1–D = 0,928) va Shannon (H = 3,263) indekslarining yuqori qiymatlari faunaning xilma-xilligi va muvozanatlanganligini ko‘rsatadi. Margalef, Menhinick va Fisher alfa indekslari turlar boyligining yuqoriligini tasdiqlaydi, Berger–Parker indeksi esa faunada mutlaq dominant emas, balki bir nechta yetakchi turlar mavjudligini bildiradi. Chao-1 indeksi potensial turlar soni yuqoriligini ko‘rsatib, qo‘shimcha tadqiqotlar zarurligini asoslaydi.



5-rasm. Zoofil pashshalar faunasida dominant turlarning hissasi.

Umuman olganda, olingan natijalar Samarqand viloyati zoofil pashshalar faunasi murakkab tuzilgan, ekologik jihatdan barqaror va antropogen omillarga moslashgan tizim ekanligini tasdiqlaydi (1-jadval).


Dissertatsiyaning uchinchi bobining navbatdagi bo‘limida zoofil pashshalarning biotopik taqsimlanishi tahlil qilinib, turlar va individlar sonining turli biotoplarda notekis taqsimlanishi ularning ekologik xususiyatlari hamda antropogen omillarga bog‘liqligi bilan izohlangan. Tadqiqot natijalari aholi yashash hududlari, chorvachilik fermalari va yaylovlarda zoofil hamda sinantrop turlar ustunlik qilishini ko‘rsatdi. Eng yuqori tur xilma-xilligi chorvachilik fermalari (44 tur) va uy xo‘jaliklarida qayd etilib, bu hududlarda organik substratlarning ko‘pligi va hayvonlarning doimiy mavjudligi bilan izohlanadi.

1-jadval

Zoofil pashshalar faunasining ekologik xilma-xillik indekslari bo‘yicha tahlili

Bioxilma-xillik indeksi	real qiymat	indeksning pastki ishonch chegarasi	indeksning yuqori ishonch chegarasi
Takson soni	90	-	-
Individ soni	3019	-	-
Simpson dominantlik	0,07209	0,06751	0,07708
Simpson xilma-xillik	0,9279	0,9229	0,9325
Shannon–Weaver	3,263	3,216	3,312
Sheldonning tekislik	0,2904	0,2769	0,305
Brillouin	3,205	3,158	3,253
Menhinick	1,638	-	-
Margalef	11,11	-	-
Pielou tekislik	0,7252	0,7147	0,7361
Fisher alfa	17,44	-	-
Berger-Parker	0,1954	0,1809	0,2097
Chao-1	118,5	92,4	117,2

Dasht va yaylov biotoplarida koprofag va gematofag turlar ustun bo‘lib, ularning populyatsiyasi barqaror saqlanib turadi. Tog‘oldi hududlarda tur boyligi nisbatan yuqori bo‘lsa, baland tog‘ mintaqalarida iqlim sharoitlari tufayli turlar soni kamayishi kuzatilgan (6-rasm).



6-rasm. Turli biotoplar zoofil pashshalar faunalarining bioxilma-xillik indekslari (chapda Simpson indeksi va o‘ngda Jakkar indeksi) asosida kladogrammasi. Bu yerda: 1-Institut hovlisi; 2-Uy xo‘jaliklari; 3-Dasht va quruq tog‘ yaylovlari; 4-Past tog‘; 5-O'rta tog‘; 6-Baland tog‘; 7-Fermalar.

Faunaning tarkibiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, zoofil pashshalar populyatsiyasining asosiy qismi chorvachilik bilan bog‘liq biotoplarda shakllanadi. Bu hududlarda *Musca*, *Stomoxys*, *Haematobia* kabi avlodlar vakillari dominantlik qiladi, boshqa biotoplarda esa turlar ko‘proq subdominant va retsedent guruhlar sifatida uchraydi.

Umuman olganda, zoofil pashshalarning biotopik taqsimlanishida asosiy omil chorva mavjudligi va organik substratlarning barqarorligi bo‘lib, antropogen

hududlarda yuqori populyatsion zichlik, tabiiy biotoplarda esa nisbatan past, ammo ixtisoslashgan fauna shakllanishi aniqlangan (2-jadval).

Dissertatsiyaning uchinchi bobining navbatdagi bo‘limida zoofil pashshalarning ekologik guruhlari tahlil qilinib, ularning trofik tuzilmasi va ekotizimdagi funksional roli yoritilgan. Tadqiqot natijasida Samarqand viloyatida zoofil pashshalar 9 ta ekologik guruhga ajratilib, ular orasida koprofag, saprofag va sinantrop turlar ustunlik qilishi aniqlangan .

Turlar soni bo‘yicha eng katta ulushni koprofag (26,67%) va saprofag (23,33%) guruhlar tashkil etib, bu holat chorvachilik biotoplarida organik substratlarning ko‘pligi bilan izohlanadi. Euzoofil turlar (15,56%) chorva hayvonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, fauna tarkibida muhim o‘rin egallaydi.

